

## BOSHLANG'ICH SINF DARSLIKLARI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR, DARSLIK TUSHUNCHASI

**Choriyeva Zulfiya**

TerDUPI magistranti

***<https://doi.org/10.5281/zenodo.6896193>***

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darsliklari unga qo'yiladigan talablar va darslik tushunchasi ochib berilgan. Maqola davomida darsliklarga qo'yiladigan talablar va ularning zamonaviy dasturlarga moslik darajasiga to'xtalib o'tilgan hamda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, o'quv darsliklari, o'zlashtirish ko'rsatkichi, predmet, uslub, zamonaviy dasturlar.

### **УЧЕБНИКИ ДЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ И ТРЕБОВАНИЯ К НИМ, ПОНЯТИЕ УЧЕБНИКОВ**

*Аннотация.* В данной статье разъясняются требования к учебнику для начальной школы и концепция учебника. В статье рассматриваются требования к учебникам и их совместимость с современными программами, а также значение современных технологий.

**Ключевые слова:** начальная школа, учебники, индекс успеваемости, предмет, стиль, современные программы.

### **PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS AND THEIR REQUIREMENTS, THE CONCEPT OF TEXTBOOKS**

*Abstract.* This article explains the requirements for a primary school textbook and the textbook concept. The article discusses the requirements for textbooks and their compatibility with modern programs, as well as the importance of modern technologies.

**Keywords:** elementary school, textbooks, mastery index, subject, style, modern programs.

### **KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan keyin iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'liga ega bo`ldi. Mustaqillik omili ta'lif sohasini ham tubdan yangilash zaruratini vujudga keltirdi.

### **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida" gi qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari" asosida ta'lifning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli, vositalari hamda prinsiplari tanlanishi birinchi darajali ehtiyojga aylandi. Natijada 1999-yilda umumiy o'rta ta'lifning davlat standartlari tasdiqlandi. Davlat ta'lif statdartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb- hunar va oliv ta'lif mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilab berdi. Davlat ta'lif standarti amaliyatga joriy qilinib, bir qator tajribalar to'plandi. 2005-yilda to`plangan tajribalar asosida Davlat ta'lif statdarti takomillashtirildi.

Darslik – muayyan o'quv fani mazmunini o'quv dasturida ko'rsatilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilib beradigan kitob sanaladi.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Darslikning xarakterli xususiyati,- bu uning mazmunining o'quv dasturi mazmuniga mos kelishidir. Darslikda material bo'limlar bo'yicha taqsimlanadi. Har bir mavzu muayyan bob, uning tarkibida bo'lgan bandlar asosida ochib beriladi. O'quv darsligi bir qator talablarga

muvofiq yaratiladi. Ushbu talablar quyidagilardan iboratdir: O'quv darsligida ilmiy bilimlar tizimi va hajmi o'quv dasturi talablariga tegishli hajmda sinf talabalarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo'lishi kerak. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari hamda g'oyaviy yo'nalishi tizimli va izchil bo'lishi, keltirilgan ma'lumot va dalillarning asosli, ishonchli bo'lishi, ular to'g'ri tahlil, aniq ta'rif etilishi, tegishli xulosalar chiqarilishi lozim.

### MUHOKAMA

Nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog'liqligi ta'minlanishi lozim. Darslik fanda hisobot qilinmagan, ma'lum ta'rif va qoidalarga ega bo'lмаган, mavjud masalalardan holi bo'lishi kerak. Bayon qilinayotgan materialning xususiyatiga bog'liq holda tegishli qoida va ta'riflar berilishi, dalillar keltirilishi va ba'zi materiallar rasm, surat, jadval, diagramma va boshqa tasvirlar bilan boyitilishi talab etiladi.

Bayon qilinayotgan material o'quvchilarga tushunarli, pishiq, puxta va ixcham jumlalardan iborat bo'lishi lozim. Darslikning tashqi ko'rinishi, bezagi muayyan bosqich talabalarining estetik didlariga mos keladigan bo'lishi katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Darslik muayyan bosqich talabalari uchun joriy qilingan gigiena qoidalariga muvofiq bo'lishi maqsadga muvofikdir. Mavzulardagi fikrlar aniq va qisqa bo'lishi, ilmiylikka asoslangan bo'lishi kerak. Darsliklar o'quv materialini to'laroq va chuqurroq egallab olishga yordam beruvchi o'quv qo'llanmalari bilan to'ldirilish lozim. Yo'nalishi va hal qilinadigan vazifalarga ko'ra o'quv qo'llanmalarni quyidagicha bo'lish mumkin:

- a) o'quv materialini chuqurlashtiruvchi va uni eslab qolinishiga yordam beruvchi qo'llanmalar-entsklopediya, mashqlar to'plami, o'qish kitobi, kartalar;
- b) o'rganiladigan masalalarni tasvirlovchi va bu bilan aniq tasavvur hosil bo'lishiga yordam beruvchi qo'llanmalar-rasmlar, ko'rgazmali qurollar siklli, plakatlar, diagrammalar, diapozitivlar, atlaslar.
- v) ko'nikma va malakalarni hosil qilishga yordam beruvchi qo'llanma- lar, topshiriqlar kartochkasi.
- g) ma'noni tushunishni yengillashtiruvchi qo'llanmalar lug'atlar, ma'lumotnomalar.
- d) ko'p maqsadga xizmat qiluvchi qo'llanmalar-kinofil' mlar, entsiklopediyalar va boshqalar.

O'quv dasturi va darslikning uyg'unligidan kelib chiqib o'quv muassasalarida ta'lim va aniq darslar olib boriladi.

### XULOSA

Ta'lim maqsadi – mustaqil jamiyatimiz ravnaqiga nazariy va amaliy hissa qo'sha oladigan "Barkamol avlod" ni tarbiyalash. Ta'limning vazifasi-yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat.

### REFERENCES

1. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. T. 1996.
2. Munavvarov A.K. Pedagogika. "O'qituvchi". 1996.
3. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". T. 1997.
4. Pedagogika. O'quv qo'llanma. T. 1996